

ТА'ЛИМ ЖАРAYONIDA O'UVCHILARNING BILIMLARINI O'ZLASHTIRISHDA PEDAGOGNING TA'SIRI

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi III bosqich talabasi

Mamatqobilova Rayhon Abdumo'min qizi

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta'lim jarayonida o'quvchi yoshlarni ta'lim olishida pedagoglarni ro'li, Pedagog shaxsining ijtimoiy xususiyatlari shuningdek shaxs kamolatida pedagoglarning tutgan ahamiyati

Kalit so'z:

O'zbekiston mustaqillikka erishgan dastlabki kunlardan boshlab jamiyatimizning barcha sohalarida, jumladan, ma'naviy-ma'rifiy hayotimizda ham ulkan o'zgarishlar ro'y bermoqda. Bunday o'zgarishlar yoshlarni barkamol inson qilib tarbiyalash masalasi har qachongidan ham dolzarbligini asoslaydi. Shaxsning shakllanishi, psixik rivojlanishining ko'pgina ahamiyatli xususiyatlari o'quvchilik davrlariga to'g'ri keladi. O'quvchilik davri o'zining serqirraligi hamda jo'shqinligi bilan bilan boshqa davrlardan farqlanadi. Shu nuqtai nazardan olib qaraganda yoshlarimizni har tomonlama yetuk shaxs qilib tarbiyalashimiz uchun avvalo ularda pedagogik va psixologik bilimlarni barqarorligi shakllanishining psixologik xususiyatlarini mukammal bilishimiz, ularni yanada rivojlantirishning xozirgi kun talablaridan kelib chiqqan xolda innovatsion usul va vositalarini ishlab chiqib, amaliyotga tadbic etishimiz zarur.

O'quvchilar jamoasi mustaqil tashkilotdir, ammo u pedagogik rahbarlikka muhtojdir. O'quvchilarni o'z holiga tashlab qo'yish ham, ayni vaqtda bolalar jamoasiga nisbatan ma'muriyatchilik ham, buyruqbozlik yo'liga o'tib olish ham mumkin emas. Birinchi holda, sinf rahbari bu ishlardan umuman chetlashib, o'quvchilar bilan aloqaning susayishiga yo'l qo'ysa, ikkinchi holda u tazyiq yo'liga o'tib o'quvchilar mustaqilligini yo'qqa chiqaradi.

Sinf rahbarining bosh vazifasi bolalar jamoasi faoliyatini mohirlik bilan boshqarish, o'quvchilar tashabbuskorligini o'stirish, sinf jamoasi faolligi va mustaqilligini tarkib toptirishdan iboratdir.

O'quvchilarni pedagogik kuzatish o'quvchilar hayoti va faoliyatini o'rganishning eng ishonchli usullaridan biridir. Bu ysh darslarda, darsdan tashqari vaqtlarda, ijtimoiy-foydali mehnat sharoitida, qo'yingchi, ijtimoiy hayotning hamma sohalarida amalga oshiriladi. Albatta – bu degani – sinf rahbari hamma vaqt va hamma joyda o'quvchilar izidan yurib, ularni zimdan kuzatadi degan gap emas.

O'quvchilarni kuzatish nafaqat maktabda, balki ko'cha-ko'yda, oilada, teatrd, sayru-tomoshada, sport o'yinlarida, oddiy gurunglarda ham olib boriladi.

O'quvchilarni kuzatish qanchalik puxta, aniq, izchil reja asosida olib borilsa, ish shunchalik oson kechadi.

Tajribali sinf rahbarlari o'quvchilarning turli axloqiy va jismoniy xislatlarini bir qancha sinovlar orqali oppa-oson aniqlashadi qo'yadi. Jismoniy tarbiya darslarida turnikka tortinish, qiyin va nozik mashqlarni bajarishda, vrach xonasidagi emlash jarayonida, bir oz qiyinroq mehnat topshiriqlarida, ulardan uzoqdagi biror kishini chaqirib kelish, yoqtirmagan ishni buyurish orqali ulardagi iroda va qo'rqqoqlik, kuch va nimjonlik, qat'iylik va jur'atsizlik, mehnatsevarlik va yalqovlik kabi xislatlar namoyon bo'ladi.

O'quvchilarni kuzatish va undan to'plangan ma'lumotlar umumiylik va nisbiylik kasb etishini unutmazlik lozim. Shuning uchun ham tasodifiy va shoshilinch xulosalar chiqarmazlik kerak. O'quvchilar xulq-atvoridagi tashqi jihatdan bir xildagi voqea-hodisalar turli sabablarga ko'ra sodir bo'lishi mumkin.

O'quvchilarni kuzatish davomida, ayniqsa ularning ba'zi bir xatti-harakatlarini baholashda ularning keltirib chiqargan sabablarini aniqlab olish juda muhimdir. Masalan, o'quvchi darsga kechikib keldi, deylik. Sinf rahbari uni qo'yishdan oldin vaziyatni aniqlab olishi maqsadga muvofiqdir. Bu holatda balki ota-ona aybdordir, balki u ko'r kishini ko'chadan o'tkazib qo'ygandir, balki yo'lda ag'anab tushib,

kiyimlarini qayta almashtirib kelgandir. Hayotda hamma narsa bo'lishi mumkin. Buni inkor qilib bo'lmaydi.

Ba'zan o'quvchi o'qituvchining gaplarini e'tiborsiz tinglaydi. Bu o'qituvchida narozilik uyg'otadi va u haq. Balki uning oilasida notinchlik bo'lganu u tun bo'yi uxlamasdan bezovta bo'lib chiqqan, darsda fikrini bir joyga to'play olmaydi.

Nima bo'lgandayam, o'quvchilarni kuzatish yuksak madaniy, saxiy qalb, bolalar shaxsiga katta hurmat, bolalar tarbiyasini bilish, sinchkovlik, yetuk mahorat va malaka talab etadi.

Pedagogning kuzatishi qanchalik qimmatli bo'lmasin, butun sinf haqida va ayrim o'quvchilar to'g'risida ma'lumotlar o'rganishning boshqa usul va yo'l-yo'riqlari yordamida aniqlashni va kengaytirishni talab etadi.

Bundan kelib chiqib, maktabda o'quvchilar shaxsiy ishini samarali tashkil etish zamon talabidir. Buning uchun ularga mehnatni ilmiy tashkil qilishning oqilona eng oddiy usullarini o'rgatish zarur. Bu bilan ularga eng kam kuch sarflab eng ko'p samaraga erishish imkonini yaratgan bo'lamiz.

Mehnatni ilmiy tashkil qilishning quyidagi asosiy talablari mavjud:

1. Maqsadni aniqlab olish.
2. Ishni qismlarga ajratish.
3. Qismlarni keraksiz narsalardan tozalash, qolganlarini oqilona joylashtirish.
4. Eng kerakli qurol-asboblarni tanlash.
5. Eng yaxshi usullarni o'rganish.
6. Maqsadga erishish.

Bularni o'quvchilar hayotiga qanday tatbiq qilib bo'ladi?

O'qish – aqliy mehnat turlaridan biri. Mamlakatimizda millionlab o'quvchilar maktablarda o'qishadi. O'qish – bu o'ziga xos xususiyatga ega mehnatdir. Shu narsa aniqki, bu mehnat ham ayni bir natijaga erishish uchun ko'p yoki oz kuch sarflanishiga qarab u yoki bu darajada samarali bo'lishi mumkin.

O'quvchilarni har bir ishga kirishishdan oldin xoh yozma, xoh og'zaki reja tuzib olishga o'rgatish kerak. Ijtimoiy ishlab chiqarishda ham, shaxsiy ishda ham tartiblilik, tejamlilik rejaning mavjudligi va mukammalligiga bog'liqdir:

Reja – ishdagi muvaffaqiyatning asosidir.

Reja – harakat uchun dastur.

Rejaning tarkibiy qismlari:

Ish maqsadini aniqlash.

Ish uchun nimalar kerak?

Ish tartibi, ish jarayoni, vaqti, joyi.

Nihoyat, ishning o'zini: uning nimadan boshlanishi, qanday borishi, nimadan keyin nima kelishini aniq tasavvur qilish kerak.

Ishni bajarish uchun eng avvalo tegishli ish o'rni kerak. Maktabdagi ko'pchilik darslar uchun parta yoki stol singari ish o'rni to'liq kifoya qiladi.

Endi ish o'rniga quyidagi talablar qo'yiladi:

1. Ish o'rnida hech qanday ortiqcha narsa bo'lmadligi kerak. Aks holda kerakli narsani topish uchun ko'p vaqt sarflanadi.

Ish o'rnida tozalikni ta'minlash kerak. Ish o'rni qanchalik toza bo'lsa, ishlash shunchalik oson, zavqli bo'ladi.

Ish o'rnida bajariladigan ishga muvofiq tartib ta'minlanishi lozim. Bizga kerak bo'ladigan hamma narsani bir tomonda (yaxshisi chapda), bajarilgan va foydalanilgan narsalarni o'ng tomonda saqlash kerak. Ko'p ishlatiladigan narsalar yaqinroq turishi kerak.

Stolda tartib saqlanishi uchun ruchka, qalam, knopka, qisqich, o'chirg'ich va maxsus qalamdondan foydalanish o'rinli. Shuni unutmaslik kerakki, sinf xonasidagi tartib, ozodalik har bir ish o'rnidagi tartib va ozodalikka bog'liq.

Bu xildagi ish jarayoni o'quvchilarni tartiblilikka, ozodalikka, o'z-o'zini nazorat qilishga, qiziqib mehnat qilishga o'rgatadi.

O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini nazorat qilish, baholash ta'lim jarayoning muhim tarkibiy qismlaridan biri-nazorat vahisobga olishdir.

Bu tushunchalar o'ziga xos mohiyat va xususiyatlarga ega.

O'qituvchi nazorat va hisobga olishni to'g'ri tashkil etsa, ta'lim jarayoning samaradorligi ortadi. Bunun uchun o'qituvchi o'quvchining o'quv materiallarini o'zlashtirish darajasini aniqlab borishi lozim. O'quvchilarning bilim va malakalarini tekshirish qo'yida ko'rsatilgan mantiqiy ketma-ketlikda olib borilishi kerak.

Tekshirish tizimidagi **birinchi bo'g'in** ta'lim oluvchinig bilim darajasini oldindan aniqlash hisoblanadi. Odatda, u o'quv yili boshida o'quvchilar tamonidan avvalgi o'quv yilida o'zlashtirgan bilimlari darajasini aniqlash maqsadidida o'tkaziladi. Bu tekshirish, shuningdek o'quv yilinig o'rtasida yangi bo'lim(kurs)ni o'rganishga kirishilganda ham o'tkazilishi mumkin va o'rinli bo'ladi.

Bilimlarni tekshirishning **ikkinchi bo'g'ini** har mavzuni o'zlashtirish jarayonidagi joriy tekshirishdir. Joriy tekshirish ta'lim oluvchilar tamonidan o'quv dasturida belgilangan ayrim alohida elementlarni o'zlashtirish darajasini tashxislash imkonini beradi. Mazkur tekshirishning asosiy vazifasi o'rgatishdir. Bunday tekshirishning shakl va metodlari turlicha bo'lib, ular o'quv material mazmuni, murakkabligi, o'quvchilarning Yoshi va tayyorgarligi, ta'lim bosqichi va maqsadlari, muayyan pedagogik sharoitlarga bog'liq bo'ladi.

Takroriy tekshirish bilim, ko'nikma va malakalarni tekshirishning uchunchi bo'g'uni sanalib, joriy tekshirish kabi mavzuli bo'lishi mumkin. Yangi mavzuni o'rganish bilan birga o'quvchilar avval o'rganganlarini takrorlaydilar. Takroriy tekshirish bilimlarni mustahkamlashga ko'maklashadi, biroq o'quv ishlari bosqichini tavsiflash ,bilimlarni o'zlashtirish mustahkamligi darajasini tashxislash imkonini bermaydi. Ushbu tekshirish tashxisining boshqa turlari va metodlari bilan birga qo'llanilsagina kutilgan samarani beradi.

Tizimning to'rtinchi bo'g'ini o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini yaxlit bo'lim yoki kursnig alohida mavzusi bo'yicha **davriy tekshirish** hisoblanadi.

Mazkur tekshirishning maqsadi- kursning turli qismlarida o'rganilgan o'quv materialining strukturaviy elimentlari o'rtasidagi o'zaro aloqalarni o'zlashtirish sifatini tashxislash. Davriy tekshirishning asosiy vazifasi-tizimlashtirish va umumlashtirish.

Tekshirishni tashkil etishda beshinchi bo'g'in ta'lim oluvchilarnimg, ta'lim jarayoning barcha bosqichlarida egallangan bilim, ko'nikma va malakalarini **yakuniy tekshirish va hisobga olishdir**. O'zlashtirishning yakuniy hisobi har bir chorak vao'quv yili oxirida o'tkaziladi. U olingan baholarni qo'shib, o'rtacha arifmetik ballni mexanik tarzda chqarishdangina iborat bo'lmashligi lozim. Bu, avvalo, mazkur bosqichda belgilanganmaqsadga muvofiq tarzda amaldagi ta'lim olganlik darajasi (sifati) ni tashxislashdir.

Tekshirishdan tashqari nazorat o'z ichiga baholashni (jarayon sifatida) va bahoni (natija sifatida) ham oladi. **Baholash** deb bilim, ko'nikma va malakalarni o'quv dasturida ko'rsatilgan etalon (ko'rsatkich, qolip, o'lchagich) lar bilan solishtirishni aytamiz. **Baho** deb baholashning ball shaklida ko'rsatilgan son jihatdan o'lchamiga aytiladi. O'zlashtirish tabellari, sinf, guruh jurnali reyting daftarchalari va shu kabilarda baholar shartli belgilar, kod signallari, xotiralanish belgilari va xakozalar baho ko'rinishida qayd etiladi. O'quvchilarning o'zlashtirish darajasini baholash uchun nazorat yakunlari (natijalari) asos bo'ladi. Bunda o'quvchilar ishining ham sifat, ham miqdor ko'rsatkichlari esa a'lo, yaxshi, qoniqarli va hakoza baholovchi fikrlar yordamida qayd etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi 2020 yil 23 sentabrdagi O'RQ-637-sonli "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni.
2. Abu Nasr Forobiy "Fozil odamlar shahri" «O'qituvchi», 1993.
3. Musurmonova O. "Oila ma'naviyati –milliy g'urur". – Toshkent, "O'zbekiston", 1999 y,
4. Musayev.N. Oilada bola tarbiyasining psixologik xususiyatlari. – Maktab va Hayot jurnali, 2005 yil,